

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA O'LMAS AN'ANA VA MAROSIMLARNING
AHAMIYATI**

Yuldasheva F.F

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Xolmanova Ruxsora

O'zDJTU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlari tarbiyasida an'analarimiz va marosimlarimizning ahamiyati qay darajada muhimligi haqida gap boradi. Qolaversa, bundan tashqari o'quvchi yoshlari tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarimizni qo'llashimiz qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida ma'lumotlar beriladi.

Annotation: The article talks about how important our traditions and rituals are in the education of young students. In addition, information is provided about how correct or incorrect it is to use our immortal traditions and rituals in the education of young students.

Аннотации: В данной статье говорится о важности наших традиций и обрядов в воспитании младших школьников. Кроме того, приводится информация о том, насколько правильно или неправильно использовать наши бессмертные традиции и обряды в воспитании младших школьников.

Tayanch so'zlar: milliy an'analar, marosimlar, oila, yoshlari, jamiyat, madaniyat.

Key words: National traditions, ceremonies, family, youngers, society, culture.

Основные слова: Национальные традиции, церемонии, семья, молодые люди, общество, культура.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon juda katta o'zgarishlarni boshimizdan kechirdik. Jamiyatimiz moddiy va ma'naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy o'zligini anglashda samarali ta'sir ko'rsatyapti. Bu o'zgarishlar barcha narsalarga, masalan, ma'daniyat, ilm-fan va boshqa narsalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Bularidan biri milliy urf-odatlarimiz va marosimlarimizdir. Hozirgi kunda ko'rishimiz mumkinki, o'quvchi yoshlari o'rtasida milliy an'ana va marosimlarimizga bo'lgan ishonch, hurmatning yo'qolib boryotganiga guvoh bo'lamiz. Yoshlar orasida turli xil madaniyatlarga taqlid qilgan holda o'z milliy urf-odatlarimizni unitib qo'yishmoqda. Bizning o'z milliy urf-odatlarimiz, bir biridan go'zal marosimlarimiz bir chetga surilib qolayotganga o'xshaydi go'yo.

O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'limgarbiya, madaniyat an'analarini uzoq asrlarga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod-ajdodlarining milliy marosimini chuqur bilishi yoshlari ma'naviyatining omilidir. Bizning milliy urf-odatlarimiz va marosimlarimiz

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

ko'pgina kitoblarda ham yoritilgan.Masalan Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq", Alisher Navoiyning she'riyatida Qori Niyoziyning "Hayot maktabi", Abdulla Avloniyning "Guliston yoxud turkiy axloq" asarlarida sharq xalqlari,xususan,o'zbek xalqiga xos ibratli tomonlar ochilib berilganki,ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan ota-onani hurmat qilish,insoniylik,mehr-shafqat,farzandga mehrli va fidoyi bo'lishlik ka'bi fazilatlarni dunyoga tanitgan bo'lsa ajab emas.O'zbek oilasining asosiy o'ziga xos xususiyatlari mehmono'stlik va yoshi kattalarga an'anaviy hurmat-ehtiromli muomila qilishdir.Hozirgi kunda esa bu dolzarb mavzularimizdan biriga aylanib bormoqda.Yoshlarimiz o'rtasida milliy qadriyatlarimizga bo'lgan humatsizlik taboro ortib bormoqda.Urf-odatlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib,bu bizning hayotimizda juda muhim rol o'ynaydi.Biz yoshlar esa ularga bepisandlik bilan qaraymiz va qarab kelmoqdamiz.Ayniqsa,yoshlar o'rtasida eng ulug' rishtalardan bo'l mish nikoh masalasiga juda yengil qarashi oqibatida yosh oilalarning buzilib ketishiga sabab bo'lmoqda.Marosim-ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib,inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbir hisoblanadi.Hozirda esa biz unga beparvodekmiz go'yo.Bu bizning tanazzulimizdir.

Xulosa qilib shu narsani ta'kidlamoqchimanki, biz yoshlar internetdagi turli chorlovlarga ishonsak, chet elning jangari va axloqiy buzuq filmlari tamosha qilsak, asab va qonni junbushga keltiruvchi ajnabiy musiqalarini tinglasak o'zligimizdan yiroqlashib boraveramiz. Aksincha o'z bilimlarimizni doimiy ravishda mustaqil ta'lim hisobiga oshirib borsak, boy ma'naviy merosimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizni chuqur o'rgansak va albatta mutaxassis sifatida ularni keng targ'ib qilsakkina vatanimiz, millatimiz, xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni ado etgan bo'lamiz. Ilk tarbiya oiladan boshlanadi. Qush uyasida ko'rganini qiladi deyishadi. Qolaversa bir bolaga etti mahalla ota-oni deb bejizga aytilmagan. Bola yosh nihol hisoblanadi, qayoqqa egza shu tomonga qarab o'saveradi.Tadqiqotimizning natijalaridan kelib chiqqan holda yoshlarimiz o'rtasida milliy an'ana va qadriyatlarimizga bepisandlik ko'payib ketayotganga o'xshaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Oila-mahalla-ta'lim muassasi" chora tadbir.13-mart 2020 yil.
- 2.WWW.pedagoglar.uz sayti
3. "Milliy an'ana va marosimlar" haqidagi veb saytlar
- 4.Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma'naviyat. 2007. 238 b.
- 5.A.Allayarov, G'.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.